ISNN 3030-3907

2026/3
VOLUME 6

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/3 VOLUME 6

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MAQOLA MAVZUSI: OLIY TA’LIM VA MEHNAT BOZORI O‘RTASIDAGI INTEGRATSIYA: ANDIJON TAJRIBASI VA UMUMIY VAZIYATDAGI BITIRUVCHILAR BANDLIGINI TA’MINLASH MASALALARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

Bahodirov Saidahror Murodbek o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti mustaqil tadqiqotchisi 2-bosqich

Anontatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, inetgratsiya jarayonlari hamda bitiruvchilarning bandligini ta’minlash masalalari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda Andijon viloyati misolida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining ishga joylashish jarayonlari, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi hamda ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlari o‘rganilgan. Shu bilan birga, ta’lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, amaliyot va dual ta’lim tizimini keng joriy etishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari asosida bitiruvchilarni bandligini ta’minlashda raqamli platforma va ma’lumotlar tahlili (Big Data) imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiyani chuqurlashtirish orqali yosh mutaxassislarning barqaror bandligini ta’minlash bo‘yicha amaliy yo‘nalishlar kelitirilgan. Tadqiqot statistik ma’lumotlar, o‘qituvchilar va talabalar bilan suhbatlar, mintaqaviy iqtisodiy tahlillarga asoslangan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, mehnat bozori, bitiruvchilar bandligi, aholi bandligi, dual ta’lim, raqamli transformatsiya, hamkorlik, Andijon viloyati.

Аннотация. В данной статье представлен научный анализ вопросов укрепления сотрудничества между системой высшего образования и рынком труда, интеграционных процессов и обеспечения трудоустройства выпускников. Исследование рассматривает процессы трудоустройства выпускников высших учебных заведений, их конкурентоспособность на рынке труда и механизмы сотрудничества с работодателями на примере Андижанской области. Одновременно обосновывается важность адаптации образовательных программ к требованиям рынка труда, широкого внедрения стажировок и систем дуального образования. На основе результатов исследования разработаны предложения и рекомендации по эффективному использованию цифровых платформ и анализа данных (Большие данные) для обеспечения трудоустройства выпускников. В статье представлены практические направления обеспечения стабильного трудоустройства молодых специалистов путем углубления интеграции высшего образования

ISSN 3030-3907

и рынка труда. Исследование основано на статистических данных, интервью с преподавателями и студентами, а также региональном экономическом анализе.

Ключевые слова: высшее образование, рынок труда, трудоустройство выпускников, занятость населения, дуальное образование, цифровая трансформация, сотрудничество, Андижанская область.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the issues of strengthening cooperation between the higher education system and the labor market, integration processes and ensuring the employment of graduates. The study examines the employment processes of graduates of higher education institutions, their competitiveness in the labor market and mechanisms of cooperation with employers using the example of Andijan region. At the same time, the importance of adapting educational programs to the requirements of the labor market, the widespread introduction of internships and dual education systems is substantiated. Based on the results of the study, proposals and recommendations have been developed on the effective use of digital platforms and data analysis (Big Data) to ensure the employment of graduates. The article presents practical directions for ensuring the stable employment of young specialists by deepening the integration between higher education and the labor market. The study is based on statistical data, interviews with teachers and students, and regional economic analysis.

Keywords: higher education, labor market, graduate employment, population employment, dual education, digital transformation, cooperation, Andijan region.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 8-avgust kuni oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta’minlash masalalari bo‘yicha videselektor yig‘ilishini o‘tkazdi. Ohirgi yetti yilda oliy ta’lim tizimida qabul kvotalari 4,5 barobar oshib, yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrovi 42 foizga yetgan bo‘lsa-da, kadrlar tayyorlash tizimi haligacha real ehtiyojga mos emasligi ko‘rsatib o‘tdi.

Oliy ta’limda tayyorlanayotgan mutaxassislar bilan ish beruvchilar talabi o‘rtasida katta farq mavjudligi integratsiya jarayonlarini kamchiliklari natijasida, ko‘plab korxonalar xorijiy davlatlardan tayyor malakali kadrlar jalb qilishga majbur bo‘layotgani qayd etdi. Har bir talabani oliygohda o‘qitib, mutaxassis sifatida tayyorlash uchun davlat yiliga o‘rtacha 25–30 million so‘m sarflayotgan bo‘lsa-da, to‘rt yil o‘qib diplom olgan yoshlarning yarmidan ko‘pi haligacha oddiy ish joylarida band.

Bu holat oliy ta’lim tizimini mehnat bozoridagi sohalar ehtiyoji darajasiga ko‘tarish, kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash hamda yoshlar bandligini

ISSN 3030-3907

kengaytirish zarurligini keltirilgan. Shu munosabat bilan yig‘ilishda davlat rahbari tomonidan bir qator yangi tashabbuslar ilgari surildi.

Bunda Respublika bo‘yicha qiymati 1 million dollardan ortiq, ishchilar soni 50 nafardan ko‘p bo‘lgan loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarida soha va yo‘nalishlar kesimida mutaxassislar ehtiyoji aniq ko‘rsatilishi hamda mas’ul vazirlik va tarmoqlar oliy o‘quv yurtlariga buyurtma joylashtirib, kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yadi.

Oliy o‘quv yurtlarining rektorlari esa buyurtma asosida o‘qiyotgan talabalar uchun asosiy fanlardan tashqari qo‘shimcha o‘qitish modullarini joriy qiladi va fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan talabalar kredit ballari bilan baholaydi. Talabalarning bilimini ikkinchi bosqichdan boshlab xorijiy va mahalliy investorlar ishtirokida yillik tarzda baholash amaliyoti joriy qilinadi. Bitiruvchilar diplom ishlarini esa loyiha doirasidagi real masalalarga asoslanib himoya qiladi. Shu tariqa investor talablari asosida tayyorlangan bitiruvchilar kafolatli va aniq ish bilan ta’minlanishi kelitirilgan.

Yig‘ilishda, mehnat munosabatlarida xususiy sektor uchun manfaatli tizim yaratish, bitiruvchini ishga olgan xususiy tadbirkorlik subyektlariga reytingda qo‘shimcha ball berish amaliyoti joriy etilishi ham belgilandi. Oliy ta’lim muassasalari esa bitiruvchilarni vakant ish o‘rinlari mavjud korxonalarga yo‘naltirish vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, Oliy o‘quv yurtlarining rektorlarining vakolati va mas’uliyatini yanada oshirish masalasi ko‘rib chiqilib, Yangi O‘zbekiston universitetining baholash mezonlari va tizimini boshqa oliy ta’lim muassasalarida ham joriy etish belgilandi.

ADABIYOTLAR SHARXI. Oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda keng yoritib kelinmoqda. Ilgarigi tadqiqotlarda asosan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozoriga moslashuvi, ularning ish bilan ta’minlanish darajasi hamda ta’lim mazmuni bilan iqtisodiyot ehtiyojlari o‘rtasidagi muvofiqlik masalalari o‘rganilgan.[1] Xalqaro tadqiqotlarda bitiruvchilarning ishga joylashish muddati, ish joyi va olingan mutaxassislik o‘rtasidagi moslik, shuningdek, kasbiy kompetensiyalarning mehnat bozori talablariga javob berish darajasiga alohida e’tibor qaratilgan. [2]

Ayrim tadqiqotlarda ta’lim tizimida amaliy ko‘nikmalarning yetarli emasligi bitiruvchilar bandligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan.[3] Shu bilan birga, dual ta’lim, ish beruvchilar bilan hamkorlik, ishlab chiqarish amaliyotining kuchaytirilishi mehnat bozoriga kirish jarayonini yengillashtiruvchi omil sifatida baholangan biroq tizimli intgratsiya jarayonlar yetarlicha emas.[4]

ISSN 3030-3907

Chet ellik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi nomutanosiblik “skills gap” — ya’ni korxona raqamli texnologiyalar, IT, avtomatlashtirilgan uskunalar bilan ishlay oladigan mutaxassis qidiradi. Ammo bitiruvchida faqat nazariy bilim bor, amaliyot ko‘nikmalari yetishmaydi.[5] Ularning fikricha, ta’lim dasturlari bozor ehtiyojlariga yetarlicha mos kelmagan sharoitda bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanish darajasi pasayadi. Shu bois, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim va ish beruvchilar ishtirokida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish samarali mexanizm sifatida ko‘rsatiladi.[6]

Mahalliy olimlar esa O‘zbekiston sharoitida oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining ahamiyatini ta’kidlaydilar.[7] Ularning qarashlariga ko‘ra, hududiy iqtisodiyot ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash bitiruvchilarning barqaror bandligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.[8]

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiya masalalari milliy va xalqaro darajada yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, **Andijon viloyati misolida** bitiruvchilar bandligini ta’minlash mexanizmlarini kompleks tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqotlar cheklangan. Mavjud ishlar asosan umumiy statistik ma’lumotlarga tayanadi, hududiy mehnat bozorining tarkibiy xususiyatlari hamda ta’lim dasturlari bilan ish beruvchilar talabi o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarlicha ochib berilmagan.[9]

Shu sababli, mazkur maqolada Andijon viloyati sharoitida oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiya samaradorligini baholash, bitiruvchilar bandligini ta’minlashga ta’sir etuvchi omillarni hududiy kesimda tahlil qilish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish maqsad qilingan.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqot oliy ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, shuningdek, Andijon viloyati misolida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta’minlash mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida tahlil usuli qo‘llanilib, Andijon viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari tomonidan tayyorlanayotgan mutaxassislar tarkibi, ularning mutaxassislik yo‘nalishlari hamda hududiy mehnat bozorida mavjud bo‘lgan kadrlar ehtiyoji o‘rtasidagi mutanosiblik darajasi o‘rganildi. Mazkur tahlil orqali iqtisodiyot tarmoqlari kesimida bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi va “**skills gap”** holatlari aniqlandi.[10]

Tadqiqotning **ikkinchi** bosqichida statistik usullar asosida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik

ISSN 3030-3907

organlarining rasmiy ma’lumotlari qayta ishlandi. Xususan, 2022–2024 yillar davomida Andijon viloyatida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari soni, ularning ishga joylashish darajasi hamda ishsiz qolgan bitiruvchilar ulushi tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida hududda bitiruvchilar bandligi ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasi kuzatilayotgani, biroq mehnat bozori talablariga mos amaliy ko‘nikmalar yetishmasligi saqlanib qolayotgani aniqlandi.[11]

Uchinchi bosqichda solishtirish usuli yordamida Andijon viloyati bitiruvchilarining bandlik ko‘rsatkichlari respublika o‘rtacha ko‘rsatkichlari hamda xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslandi. Solishtirma tahlil natijalari oliy ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi samaradorligini oshirishda dual ta’lim, ish beruvchilar ishtirokida o‘quv dasturlarini shakllantirish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limning ahamiyati yuqori ekanini ko‘rsatdi.[12]

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida sotsiologik so‘rovnoma usuli qo‘llanilib, Andijon viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari, talabalar hamda ish beruvchilar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalari asosida ish beruvchilar tomonidan eng ko‘p talab qilinayotgan kasbiy va universal ko‘nikmalar, bitiruvchilarning amaliy tayyorgarlik darajasi hamda ta’lim jarayonining mehnat bozori talablariga moslik darajasi baholandi. Ushbu usul tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.[13]

Shuningdek, tadqiqot doirasida kontent-tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanilib, oliy ta’lim va bandlik sohasiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va strategik konsepsiyalar o‘rganildi. Ushbu yondashuvlar orqali tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi ta’minlanib, amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot doirasida Andijon viloyatida joylashgan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozoriga kirish jarayoni va ularning bandlik holati tahlil qilindi. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasining tahliliy ma’lumotlariga ko‘ra, 2022–2025 yillar davomida Andijon viloyati oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan bitiruvchilarning o‘rtacha **70–72 foizi** doimiy yoki vaqtinchalik ish bilan ta’minlangan.[14]

Shu bilan birga, bitiruvchilarning taxminan **20–25 foizi** o‘z mutaxassisligiga to‘liq mos kelmaydigan sohalarda faoliyat yuritayotgani aniqlandi. Bu holat oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlar tarkibi bilan hududiy mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasida muayyan nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

1-jadval


2022-2025-yy Andijon viloyatida oliy ta’lim bitiruvchilarining bandlik holati bo‘yicha tahliliy ma’lumot

Ko‘rsatkichlar	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.
Bitiruvchilar soni (ming nafar)	5,8	11,4	12,7	15,6
Ish bilan ta’minlanganlar (%)	68,0	69,5	72,4	79,2
Mutaxassisligiga mos ishlayotganlar (%)	41,3	43,7	46,2	48,2
Ishsizlar (%)	32,0	30,5	14,0	20,8

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bitiruvchilar bandligi yillar kesimida o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lsa-da, mutaxassislikka to‘liq mos ish bilan ta’minlanish darajasi nisbatan past qolmoqda.[15]

2022–2025 yillarda bitiruvchilar bandligining o‘sish dinamikasi ustun diagramma orqali ifodalanganda, har bir yilda ijobiy o‘sish mavjudligi kuzatiladi, ammo mehnat bozori talabiga mos kadrlar ulushi umumiy bandlikdan orqada qolmoqda.

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Andijon viloyatida oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasida muayyan integratsiya jarayonlari shakllanib bormoqda. Xususan, ish beruvchilar bilan hamkorlikda tashkil etilgan amaliyotlar, qisqa muddatli kasbiy kurslar va mehnat yarmarkalari bitiruvchilar bandligini oshirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.[16]



1-rasm. 2022–2025 yillarda bitiruvchilar bandligining o‘sish dinamikasi

ISSN 3030-3907

Biroq, tahlil natijalari ta’lim dasturlarining mazmuni va ish beruvchilar talablari o‘rtasidagi farq hali to‘liq bartaraf etilmaganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, iqtisodiyotning sanoat, xizmat ko‘rsatish va raqamli texnologiyalar sohalarida amaliy ko‘nikmalarga bo‘lgan talab yuqori bo‘lib, bu yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlashni kuchaytirish zarurati mavjud.[17]

HULOSA VA TAKLIFLAR. Mazkur tadqiqot doirasida Andijon viloyati misolida oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari hamda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bandlik holati tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda bitiruvchilar bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ijobiy samara bermoqda, xususan, ish bilan ta’minlangan bitiruvchilar ulushida barqaror o‘sish kuzatilmoqda. Biroq, bitiruvchilarning mutaxassisligiga to‘liq mos ish o‘rinlariga joylashish darajasi hali ham yetarli emasligi ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o‘rtasida muayyan nomutanosiblik saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlar tarkibi va hududiy mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqladi. Ayniqsa, amaliy ko‘nikmalar, zamonaviy kompetensiyalar va ish beruvchilar talablariga mos bilimlarni shakllantirish bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, dual ta’lim, ishlab chiqarish amaliyoti va ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlari bitiruvchilarning tez va samarali ishga joylashishida muhim rol o‘ynashi aniqlandi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, Andijon viloyatida oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiyani yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi **takliflar** ilgari suriladi:

- oliy ta’lim muassasalari o‘quv reja va dasturlarini hududiy mehnat bozori ehtiyojlari asosida muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqish;
- ish beruvchilar ishtirokida dual ta’lim va amaliy tayyorgarlik tizimini keng joriy etish;
- bitiruvchilar uchun maqsadli stajirovka, kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish;
- bitiruvchilar bandligini ta’minlash bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari va mahalliy bandlik organlari o‘rtasidagi hamkorlikni institutsional darajada mustahkamlash;
- bitiruvchilar bandligi monitoringi va tahlilini amalga oshiradigan yagona hududiy axborot tizimini shakllantirish.

Mazkur takliflarni amalga oshirish Andijon viloyatida oliy ta’lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga moslashuvini yaxshilashga, ularning barqaror

ISSN 3030-3907

bandligini ta’minlashga hamda hudud iqtisodiyotining kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Teichler U. *Higher Education and the World of Work*. Rotterdam: Sense Publishers, 2015.
2. OECD. *Education at a Glance*. Paris: OECD Publishing, 2023.
3. McGuinness S., Pouliakas K. *Skills mismatch and labour market outcomes*. ILO, 2018.
4. European Commission. *Work-based learning and dual education systems*. Brussels, 2020.
5. World Economic Forum. *The Global Skills Gap Report*. Geneva, 2022.
6. Yorke M. *Employability in Higher Education*. Higher Education Academy, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’limni mehnat bozori bilan integratsiya qilishga oid nutq va qarorlari.
8. Abdurahmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
9. Davlat statistika qo‘mitasi va KBBV hududiy ma’lumotlari asosida muallif tahlili.
10. OECD. *Skills Strategy Implementation Guidance for Employers*. – Paris: OECD Publishing, 2022.
11. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Andijon viloyati mehnat bozori ko‘rsatkichlari*. – Toshkent, 2022–2024 yy.
12. World Bank. *Linking Education Systems and Labor Markets*. – Washington, DC, 2021.
13. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. *Bitiruvchilar bandligi bo‘yicha tahliliy hisobot*. – Toshkent, 2024.
14. Andijon viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ma’lumotlari, 2024 y.
15. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Bandlik ko‘rsatkichlari*, 2022–2024 yy.
16. OECD. *Graduate Employment and Skills Matching*. Paris, 2023.
17. World Economic Forum. *Future of Jobs Report*. Geneva, 2023.
18. Abdurahmonov Q.X. *Mehnat bozori va bandlik iqtisodiyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.

ISSN 3030-3907